DAVLAT BOSHQARUVIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHGA DOIR XALQARO TAJRIBALAR

Rixsiboyev Behzod Alisherovich
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb bo‘lgan sun’iy intellektning yutuqlari, uning muhimligi, sun’iy intellektdan foydalanishdagi muvaffaqiyatli misollar keltirilgan. Sun’iy intellektdan foydalangan holda davlat xizmatlari, tadbirkorlik va bir qancha sohalardagi qulayliklarini hayotda qo‘llashning ahamiyati, sun’iy intellektning davlat boshqaruvidagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Davlat boshqaruvi, davlat xizmatlari, sun’iy intellekt, AI, innovatsion texnologiyalar, Moments of Life, AI4EU, Sharp Eyes, Skynet, konsorsium.

Bugungi kundagi raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi davlat boshqaruvi tizimlarida ham katta o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, blokchain va boshqa yangi avlod texnologiyalaridan foydalangan holda davlat xizmatlarining sifatini va samaradorligini oshirish dolzarb masalaga aylandi.

Sun’iy intellekt tobora har bir sohaga kirib kelmoqda va misli ko‘rilmagan darajada rivojlanib bormoqda. Bu omil bizga xizmatlarni sifatli, kamxarj va qulayligi bilan ahamiyatga molikdir. Tasavvur qiling, kimgadur zudlik tibbiy hizmat ko’rsatish zarur bo’lmoqda bu holda inson qaror qilishda qiynalishi va bu qarori uchun ayrim bir tahlillar o‘tkazilishi zarur bo’ladi. Ammo bu holatda har bir soniya inson taqdirini hal qilishi mumkin. Sun’iy intellekt bu masalaga sovuqqonlik bilan yondoshadi, o’zi umumiy tahlillarni amalga oshirib xulosalarini taqdim etadi. Bu bizga vaqtdan yutish imkonini beradi, Albatta sun’iy intellekt bu qarorlari mutaxasis tomonidan tahlil etiladi. Sababi yevropa mamlakatlaridagi shu kabi amaliyotlar davomida 3% holatda adashish ehtimoli mavjud lekin bu biz erishishimiz mumkin bo‘lgan imkoniyatlarning odida arzimas ko‘rsatkich hisoblayman. Solishtirish uchun kasalxonaga yotqizishning katta namunalari bo'yicha ikkita tadqiqot, biri Nyu-Yorkda 1984 yil ma'lumotlaridan, ikkinchisi Kolorado va Yutada 1992 yil ma'lumotlaridan foydalangan holda, tibbiy boshqaruv natijasida kelib chiqqan jarohatlar sifatida tavsiflangan noxush hodisani boshdan kechirgan kasalxonaga yotqizilganlarning ulushi 2,9 va 3,7 ni tashkil etdi. foiz, mos ravishda . Xatolar (ya'ni, oldini olish mumkin bo'lgan noxush hodisalar) bilan bog'liq bo'lgan noxush hodisalarning nisbati Nyu-Yorkda 58 foizni, Kolorado va Yutada 53

foizni tashkil etdi.[1] Yani bu ko‘rsatkichlar inson omili qatnashgan holatda xattolar soni bundanda yuqoriroq bo‘lishi mumkin. Albatta hozirgi zamn da bu ko‘rsatkichlar yaxshilangan ammo, hali hanuz inson qatnashuvchi jarayonlarda xatolar davom etmoqda yani bularga asosiy sabab sifatida stress, charchoq, bilimsizlik, tajribasizlik hamda o‘ziga bino qo‘yish kabi holatlar ko‘rsatilmoqda.

Sun’iy intellekt hozirda nafaqat maishiy hayotda foydalanilmoqda balki davlat boshqaruvida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib bormoqda.

Davlat boshqaruvida sun’iy intellektning ahamiyati quyidagilardan iborat:

Moslashuvchan qarorlar

Sun’iy intellekt asosida qaror qabul qilish tizimlaridan foydalanish davlat xodimlarini mayda vazifalardan ozod qilib, ularga murakkab va istiqbolli masalalarni hal qilishga yordam beradi.

Samarali resurs taqsimlash

Sun’iy intellekt tizimlar davlat tashkilotlarida moliyaviy, insoniy va boshqa resurslarni optimalroq taqsimlashga imkon yaratadi. Oqibatda mablag‘lardan samarali foydalanish va davlat xizmatlari sifatining oshishi kuzatiladi.

Shaffoflik va hisobdorlik

Sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanish davlat organlari faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlaydi, korrupsiya va suiiste’mollarning oldini olishga ko‘maklashadi.

Shuni ham aytish kerakki bugungi kunda bir qator rivojlangan davlatlar sun’iy intellektga tayangan holda hozirgi kunda muvaffaqiyat qozonib kelayotgan bir nechta loyihalarni ishga tushirgan. Bunga misol sifatida Singapurdagi "Moments of Life", Xitoyning"Sharp Eyes" va "Skynet" loyihalari hamda Yevropa Ittifoqining "AI4EU" dasturi keltirish mumkin. 2018-yil iyun oyida “Moments of Life” ishga tushirilgandan boshlab odamlarning davlat xizmatlari bilan o‘zaro munosabatini o‘zgartirishni maqsad qilgan "Moments of Life" loyihasi Singapurning Smart Nation tashabbusi doirasida boshlangan. Bunda davlat xizmatlari odamlar hayotidagi muhim daqiqalar asosida ishlab chiqiladigan[2] bo‘lsa 2019-yil yanvar oyida AI4EU konsorsiumi H2020 dasturi doirasida Yevropa Komissiyasi ko‘magida birinchi Yevropa sun’iy intellektning talabi bo‘yicha platformasi va ekotizimini qurish uchun tashkil etildi. AI4EU loyihasi faoliyatiga quyidagilar kiradi:

AIning barcha Yevropalik ishtirokchilari (olimlar, tadbirkorlar, kichik va o‘rta biznes, sanoat, moliyalashtiruvchi tashkilotlar, fuqarolar) o‘rtasida hamkorlikni osonlashtirish uchun 28 mamlakatni qamrab olgan yirik Yevropa ekotizimini yaratish va qo‘llab-quvvatlash;

Ushbu ekotizimni qo‘llab-quvvatlash va Yevropa loyihalarida ishlab chiqarilgan AI resurslarini, jumladan, yuqori darajadagi xizmatlar, AI tadqiqotlari va innovatsiyalari bo‘yicha tajriba, AI komponentlari va ma’lumotlar to‘plamlari, yuqori quvvatli hisoblash resurslari va urug‘lardan foydalanish imkoniyatini baham ko‘rish uchun Yevropa AI on-demand platformasi dizayni. platformadan foydalangan holda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish;

AIning real dunyo ssenariylarida qo‘llanilishidan kelib chiqadigan beshta asosiy o‘zaro bog‘liq AI ilmiy yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqot faoliyati (tushuntiriladigan AI, jismoniy AI, tekshiriladigan AI, hamkorlikdagi AI, integrativ AI);

AI muammolarini hal qilish va sun’iy intellekt bilan yangi yechimlarni ilgari surish uchun platformada mavjud bo‘lgan AI resurslaridan foydalanadigan va startaplarni moliyalashtirish (3 million evrolik kaskad moliyalashtirish rejasi);

Yevropa AI loyihalari yuqori axloqiy, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy standartlarga muvofiqligini ta’minlash uchun Yevropa axloqiy observatoriyasini yaratish;

Yevropa uchun keng qamrovli strategik tadqiqotlar innovatsion kun tartibini ishlab chiqarish.[3]

O‘zbekiston respublikasi hududida ham sun’iy intellektga bo‘lgan e’tibor kundan kunga oshib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevraldagi PQ-4996-sonli

[1] https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK225187/
[2] https://www.life.gov.sg/rebrand
[3] https://www.ai4europe.eu/about-ai4eu

“Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaroridagi asosiy maqsad “Raqamli O‘zbekiston — 2030” Strategiyasiga muvofiq hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo‘llash, raqamli ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta’minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish ekanligi ham e’tiborga molikdir.

Qarorda sun'iy intellekt texnologiyalarining qaysi sohalarda qay tarzda qo'llanilishi, bu borada ko'zda tutilgan vazifalar ham to'liq o'z aksini topgan.

Misol uchun, qishloq xo'jaligi sohasida: yerni masofadan zondlash ma'lumotlari asosida tuproq va qishloq xo'jaligi ekinlari holatini, shuningdek, qishloq xo'jaligi texnikasi, shu jumladan, kombaynlar ishini monitoring qilish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash ko'zda tutilgan.

Bank sohasida esa tijorat banklari faoliyatini monitoring qilish samaradorligini oshirish va ular tomonidan tartibga solish talablari (SubTech va RegTech) bajarilishini soddalashtirish, shuningdek, bank xizmatlari ko'rsatish sifatini tahlil qilish, foydalanuvchilarni masofadan biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) va kredit tavakkalchiliklarini baholash uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash vazifasi belgilangan.

Moliya sohasida esa byudjet xarajatlari, pensiya, ijtimoiy va sug'urta to'lovlari, shuningdek, nafaqa to'lovlarini tahlil qilish va samaradorligini oshirish uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash nazarda tutilmoqda.

Soliq sohasida yuridik shaxslarning soliq tushumlarini tahlil qilish, soliq to'lovlaridagi tafovutlarni aniqlashda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash, transport sohasida esa lokomotivlarni boshqarish jarayonida ularning harakatini kuzatib borish va xavfli vaziyatlarda mashinistlarni ogohlantirishda, jamoat transporti harakatini tahlil qilish va ularning optimal yo'nalishlarini aniqlashda, shuningdek, avtomobil harakatini va transportdagi tirbandliklarni monitoring qilishda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash vazifalari belgilangan.

Mazkur Qarorda boshqa sohalarda ham sun'iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanish bo'yicha vazifalar o'rin olgan.

Qarorga muvofiq, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ilmiy-innovatsion markazi hamda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti huzuridagi Intellektual-dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazi negizida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutini tashkil qilish yuzasidan vazifalar belgilangan.

Xulosa qilib aytganda albatta biz aytgan imkoniyatlardan faqat sun’iy intelekning o‘zi bilangina cheklanib qolinmaydi. Yani bizga sun’iy intellektning tahlillarini doimiy kuzatib turuvchi malakali mutaxasislar zarur bo‘ladi. Shunday bo‘lsada sun’iy intellektdan foydalangan holda davlat xizmatlarini tashkil etish, insondagi nuqsonlardan holi bo‘lgan holatda samrali va tezkor yordam ko‘rsatish imkonini beradi va bu bizga iqtisodiy, shaffoflik hamda qulaylik jihatdan qo‘l keladi. Bu imkoniyatlardan foydalanish bugungi kun talabiga aylanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2021 yil 17 fevraldagi pq-4996-sonli “sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori

2.https://www.life.gov.sg/rebrand

3.https://www.ai4europe.eu/about-ai4eu

4.Taraqqiyot Strategiyasi Markazi ⇒ Sun`iy intellekt texnologiyalari qaysi sohalarga tatbiq etilmoqda?

5.https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/nbk225187/